

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

JO‘RAYEVA LAYLO JIYANQUL QIZI

**NAVOIY ASARLARIDAGI REALIYALARNING
LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Jo‘rayeva Laylo Jiyanqul qizi Navoiy asarlaridagi realiyalarning lingvokulturologik tadqiqi.....	3
Жураева Лайло Жиянкул кизи Лингвокультурологическое исследование реалий в творчестве Навои	25
Jurayeva Laylo Jiyanqul kizi Linguo-cultural study of realities in the works of Navoiy.....	49
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works.....	53

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

JO‘RAYEVA LAYLO JIYANQUL QIZI

**NAVOIY ASARLARIDAGI REALIYALARNING
LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4638 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy Kengashning veb-sahifasi (buxdu.uz) va «ZiyoNET» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Saidov Yoqub Siddiqovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Jabborov Xo'jamurod
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Hamroyeva Hulkar Hamidullayevna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 12-iyun soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11. Tel.: (+99865) 221-29-14, faks: (+99865) 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (909 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11. Tel.: (+99865) 221-29-14, faks: (+99865) 221-27-07).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 25 may kuni tarqatildi.

(2026-yil 25 maydagi 16-raqamli reyestr bayonnomasi).



B.E. Kilichev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.G'. Davronova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.K. Abuzalova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari
doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida lingvokulturologiyaning eng muhim birligi realiyalarni fanning turli yo‘nalishlari, chunonchi, lingvistika sohasida o‘rganishga, ularning xalq madaniyatida tutgan o‘rnini belgilashga, fonetik shakli, lug‘aviy-ma‘naviy va lingvopoetik xususiyatlari, etimologik jihatlarini zamonaviy metodologiya hamda metodlar bo‘yicha o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ularning tadrijiy taraqqiyotida yuz bergan o‘zgarishlar, milliy madaniyatni shakllantirish va rivojidadagi o‘rnini belgilash, boshqa yondosh tushunchalar, xususan, metafora, ksenizm va koloritga munosabatini aniqlash bo‘yicha jiddiy izlanishlar olib borilmoqda. Faqatgina o‘zbek emas, butunjahon tilshunosligida realiyalarni o‘rganish, ularni xalqning moddiy hamda ma‘naviy boyligi singari mavzuviy guruhlar asosida tasniflash, lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlari kabilarni tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari, metodologiyasi va metodlari bo‘yicha o‘rganishni ijtimoiy davr taqozo etmoqda.

Dunyo tilshunosligida til vositalariga har bir xalqning urf-odatlarini va an‘analarini aks ettiruvchi, milliy o‘zligini anglatuvchi, ma‘naviyatini belgilovchi muhim omil sifatida qarab kelinadi. Har bir milliy tilning o‘ziga xos takrorlanmas ma‘no va mazmunga ega bo‘lgan lug‘aviy birliklari mavjud bo‘lib, uni xalq madaniyati, ma‘naviy qadriyatlarini, o‘ziga xos tafakkur tarzi va milliy-tarixiy an‘analari bilan bog‘liq ravishda o‘rganish muhim hisoblanadi va bu tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Milliy istiqloq yillari o‘zbek tilshunosligida tilni xalqning urf-odatlarini, tarixiy an‘analari va ma‘naviy olami bilan bog‘liq ravishda o‘rganishga bo‘lgan qiziqish kuchayib bormoqda. Zero, “Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir”¹. Urf-odatlar ma‘lum etnosning etnografik jihatdan o‘ziga xosligini belgilovchi muhim tomoni bo‘lib, ularning til vositalari orqali ifodalanishi tilshunoslik uchun ham, etnografiya uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Har bir hudud o‘zining etnografik leksikasiga ega bo‘lib, ularni to‘plash, lingvistik jihatdan tadqiq qilib, til vositasi sifatida avloddan avlodga yetkazish ko‘pgina lingvistik muammolarni yechish uchun imkon yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-oktabrdagi “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarorida shoir ijodiy merosini tadqiq etish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratish ko‘zda tutilgan². Shunga ko‘ra, o‘zbek milliy tafakkuri, madaniyati, mumtoz adabiyoti, adabiy tili taraqqiyotiga benazir hissa qo‘shgan hazrat Mir Alisher Navoiy badiiy asarlari tilidagi realiyalarni yaxlit tizim bo‘yicha tadqiq etish, lingvistik tabiatini ochib berish, ularning qo‘llanish darajasini aniqlash, til va madaniyatdagi o‘rnini belgilash, badiiy-estetik hamda vazifaviy-mazmuniy xususiyatlarini o‘rganish, lingvopoetik va lingvokulturologik tahlilini amalga oshirish bilan bog‘liq masalalar hozirgacha maxsus monografik tadqiq obyekti bo‘lmaganligi tanlangan mavzuning dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

¹ Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1- jild. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 26.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-oktabrdagi “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” va 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari; shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 984-son “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-yanvardagi 40-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tilshunoslik fan sifatida shakllangan davrdan boshlab tilni turli tomonlama o‘rganish natijasida xilma-xil yo‘nalish va oqimlar vujudga keldi. Shu yo‘nalishlardan biri lingvokulturologiya yo‘nalishidir. Hozirgi kunda lingvokulturologiya barcha xalqlarda shiddat bilan rivojlanayotgan yo‘nalish sanaladi. Lingvokulturologik birlik bo‘lmish realiyalar dastlab jahon tilshunosligida, shuningdek, o‘zbek tilshunosligida turlicha o‘rganilgan. Tadqiq etilgan ishlarda realiyalarning mavzuviy guruhlari, realiyalarning davrga munosabati, realiyalarning yondosh hodisalarga munosabati masalalari o‘rganilgan. Jumladan realiyalar rus tilshunosligida B.I. Repin, M.L. Vaysburd, G.D. Tomaxin, L.V. Mosiyenko, E.A. Levina, H.M. Karamzina, N.A. Fenenko, V.A. Rajina, H.M. Karamzin, V.A. Vernigorova, M.V. Ziryanova, T.B. Pentkovskaya, S.V. Nikolayenko, A.D. Slepova, S. Florin, S. Vlachov³ ingliz

³Репин Б.И. Национально-специфические слова-реалии как особая часть лексики в переводимом произведении // Теоретические и практические вопросы преподавания иностр. яз. – М., 1970. – С.87-98; Вайсбурд М.Л. Реалии как элемент страноведения // Русский язык за рубежом, 1972. №3. – С.98-100.; Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. 2-е изд., испр. и доп. – М.: Международные отношения, 1980. – 341 с.; Томахин Г.Д. Реалии в языке и культуре // Иностраный язык в школе, 1997. №3. – С.13-18.; Мосиенко Л.В. Лингвокультурологическая проблема классификации реалий // Вестник ОГУ11’2005. URL: vestnik.osu.ru/2005_11/24pdf. – С.155.; Левина Э.А. Языковые реалии в прагма- и социолингвистическом аспектах (на материале русских и немецких романов первой половины XX века и их переводов): дис. ... канд. филол. наук. Ростов-на-Дону, 2006. 159 с.; 4. Перево реали ка процес лингвистическог освоени французской действительност в «писма русског путешественника» Н. М. Карамзина (статья) // Социокультурны проблем перевода: сб. науч. трудов: в 2 ч. - Вып. 7, ч. 2. - Воронеж: Воронежски государственный университет, 2006, с. 242-249.; Фененко Н.А. Французские реалии в контексте теории языка: дисс. ... д-ра филол. наук. Воронеж, 2006. 514 с.; Ражина В.А. Ономастические реалии: лингвокультурологический и прагматический аспекты: дис. ... канд. филол. наук. Ростов-на-Дону, 2007. 156 с.; Связ реали с внеязыково действительност н пример романа Н.М. Карамзин «Писм русског путешественника» (статья) // Проблемы языково подготовк студентов: подход и перспективы: материалы Международно научно-практическо конференци [Текст] // Воронеж, гос. техн. акад. Воронеж: ВГТА, 2008, с. 48-54.; Вернигорова В.А. Осмысление реалии в подлиннике и переводе // Болгарская русистика. 2010. 4. С. 12.; Зырянова М.В. Реноминация лингвокультурных реалий (на материале французских переводов пес А.П. Чехова): автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Воронеж, 2011. 24 с. Пентковская Т. В. Адаптация реалий в церковнославянских

tilshunosligida B.L.Whorf, L.Venuti, R.Leppihalme⁴; o‘zbek tilshunosligida R.Doniyorov, R.Fayzullayeva, G‘.Salomov, H.Hamroyev, R.Shirnova, Z.Sadikov⁵; qozoq tilshunosligida A.Akkuzova, M.Glushenko, A.Kutibayeva⁶ kabilar tomonidan o‘rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq (2020-2025-yy.) “O‘zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari” mavzusidagi tadqiqot ishlari doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi Alisher Navoiy she‘riy matnlaridagi realiyalarning lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash, til va madaniyatning lisoniy hamda ijtimoiy o‘zaro aloqadorligini oydinlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon va o‘zbek tilshunosligida realiyalarning o‘rganilishi holatiga baho berish, ushbu muammo o‘rganilgan ishlarning yutuq va kamchiliklarni aniqlash, ilmiy-tanqidiy yondashuv orqali ulardagi zamonaviy nuqtayi nazarlarni milliy tilshunoslik ehtiyoji bo‘yicha o‘rganish;

badiiy adabiyotda milliy, madaniy, mental xususiyatlarni aks ettiruvchi realiyalarning ijtimoiy-madaniy jihatdan qo‘llanishini aniqlash, ularni tizimlashtirish, mohiyatini ochib berish;

Navoiy she‘riy asarlari uslubidagi realiyalarning o‘rnini aniqlash, maqsadi va vazifalarini belgilash, madaniy belgilari, mazmuniy xususiyati hamda lug‘aviy qatlamiga ko‘ra tasniflash;

shoir she‘riy asarlari tilidagi realiyalarni lingvomadaniy aspektda o‘rganish natijalarini umumlashtirish, shu asosda ularning eng muhim jihatlarini ochib berish, xalq madaniyati va tilida shakllanish hamda mukammallashish mexanizmlarini aniqlash;

hozirgi o‘zbek adabiy tilining Navoiy asarlarida qo‘llangan realiyalarga munosabatini belgilash, iste‘moldan chiqqan realiyalarning iste‘moldan chiqish sababiyatlarini lingvokulturologik aspektda aniqlash, iste‘moli davom etayotgan realiyalarning leksik-semantik xususiyatlarini o‘rganish.

переводах XVI–XVII вв.: прагматический аспект // Древняя Рус. Вопросы медиевистики. 2017. № 3. С. 99–10.; Nikalayenko S.V. (2019). Russian language through the prism of national culture and realities. *Russian Language Studies*, 17(2), 198—212. DOI: 10.22363/2618-8163-2019-17-2-198-212. ; Слепова Алена Дмитриевна Выпускная квалификационная работа Проблема перевода реалий в художественном тексте (на материале рассказов И.А. Бунина и их переводов на английский язык).

⁴ Whorf B. L. *Language, Thought and Reality. Selected writings of Benjamin Lee Whorf / ed. and with an introduction by John B. Carroll, foreword by Stuart Chase.* — New York: The Technology Press of Massachusetts Institute of Technology, 1959. — 278 p.; Venuti L. *The Translator’s Invisibility.* — London, New York: Routledge, Taylor&Francis Group, 2004. — 353 p.; Leppihalme R. *Realia / ed. by Y. Gambier // Handbook of Translation Studies, Vol. 2.* — Amsterdam: John Benjamins, 2010. — P. 126- 130.

⁵ Дониёров Р. Бадий таржимада миллий хусусиятларни акс эттириш масаласига доир. Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1962. №3-5.; Файзуллаева Р. Йўллар йироқ, кўнгиллар яқин // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). — Т.: 1973.; Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. — Тошкент, 1978 -280 б Н. Hamroyev Milliy xos so‘zlar- realiya va badiiy tarjima// Tarjima madaniyati (maqolalar to‘plami). -Toshkent.: 1983.- 158bet.; Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. — Тошкент: Ўқитувчи, 1983. — 321 б.; Ширинова Р. Х. Диний реалияларни бадий таржимада қайта яратишнинг айрим тамойиллари. (Француз адабиётининг ўзбек тилидаги таржималари мисолида): Филол. фан. номз... дисс. автореф. — Т., 2002. —125 б.; Sadikov Z. *Qadimgi turkiy realiyalar tarjiması (monografiya).* -Namangan: 2022.

⁶ Аккузова. А.А, Антропоезектік парадигма: көркем мәтіннің коммуникативтік-прагматикалық әлеуеті (Д. Исабеков шығармаларының негізінде) бD021300 – Лингвистика Философия докторы (PhD) дәрежесін алу үшін дайындалған диссертация. Алматы, 2020; М. Е. Глущенко, А. Д. Кутыбаева Реалиялар аудармасын мәдениетаралық коммуникация нысаны ретінде қарастыру. Вестник КазНУ. Серия филологическая. № 2(148). 2014;

Tadqiqotning obyekti sifatida Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devoni tanlandi. O‘rni bilan adibning boshqa she‘riy asarlariga ham murojaat etildi.

Tadqiqotning predmetini esa mazkur devondagi realiyalarning lingvokulturologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Ushbu tadqiqot mavzusini yoritishda qiyoslash, tavsiflash, lingvostatistik, lingvokulturologik va komponent tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tilshunoslikda realiya hodisasining yondosh tushunchalar: metafora, ksenizm va kolorit bilan farqlanishi *etak, qop, uchmoq, ulamoq, uzmoq, dasturxon, ud, so‘m, tanob* kabi misollar bilan ochib berilgan, realiyalarning lingvokulturologik birliklar tizimida tutgan o‘rni hamda leksik-semantik xususiyatlari o‘zbek xalqi madaniyati, tarixi, maishiy hayoti hamda adabiy tili bilan o‘zaro bog‘liq tarzda aniqlangan;

o‘zbek tilidagi realiyalar diaxron va sinxron aspektda realiya-neologizm, realiya-arxaizm va realiya-tarixizm turlariga ajratilib, Alisher Navoiy she‘riy asarlaridagi oziq-ovqat (*etmak, umoch, shilon, qovurmoch, chalpak* kabi), kiyim-kechak (*amoma, chachvon, kapanak, yilak, qur, iksun, xoro, xaz* kabi) tushunchalarini ifodalovchi etnografik realiyalarning lingvomadaniy xususiyatlari va lug‘aviy-badiiy jihatdan qo‘llanish sabablari shoir asarlaridagi faktik materiallar orqali isbotlangan;

shoir poetik asarlaridagi *tutmoch, balabon, alocha, iksun, moshob, sabbog‘, assor, ra‘d, og‘ar, bilkut, arlot, yig‘och, quloch, qarich* kabi realiyalar ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maishiy, diniy-mifologik, uy-joy jihozlari, kiyim-kechak, kasb-hunar, unvon, harbiy, etnonim, urf-odat, o‘lchov nomli mavzu guruhlari bo‘yicha tasniflanib, ularning etimologiyasi, lingvokulturologik xususiyatlari, xalq madaniyati va tilida shakllanish hamda mukammallashish mexanizmi ochib berilgan;

hozirgi o‘zbek adabiy tilining adib she‘riy asarlaridagi realiyalarga munosabati belgilanib, shoir she‘riy asarlaridagi realiyalarning eng ko‘p qismi otlardan iboratligi *shilon, jubba, rido* hamda ular orasida ayrim otlashgan sifatlar mavjudligi qasab, saqarlot, zarbaft kabi faktik materiallar bilan aniqlanib, realiyalar milliy, madaniy va tarixiy xususiyatlarga ega bo‘lishi Alisher Navoiy asarlari misolida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

realiyalarning ma‘lum bir xalqqa xos bo‘lgan milliy-madaniy mental xususiyatlarni aks ettirishi, uning boshqa lingvomadaniy birliklardan farqli hamda o‘xshash tomonlari, shuningdek, davrga munosabati masalasi yoritilgan;

milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiruvchi realiyalar mavzuviy guruhlar asosida tasnif qilinib, misollar yordamida dalillangan;

realiyalarning boshqa yondosh hodisalarga munosabati bilan bir qatorda lug‘aviy qatlamga xos belgilari ham tadqiq etilib, ularning arabiy, forsiy hamda, asosan, turkiy qatlamga oid ekanligi zaruriy manbalar asosida isbotlangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq belgilanganligi, uning talab darajasida ilmiy asoslanganligi, nazariy ma‘lumotlar va faktik materiallar ishonchli ilmiy, badiiy manbalardan olinganligi, metodik jihatdan mukammal asoslanganligi, tavsiflash, lingvopoetik, lingvokulturologik, komponent tahlil usullariga asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan e‘tirof etilganligi, muammo milliy madaniyat va tilning o‘zaro aloqadorligiga ko‘ra yoritilganligi hamda jahon tilshunosligining yangi yo‘nalishlari va tahliliy usullari asosida tadqiq qilinganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya, antropolingvistika, etnolingvistika, pragmlingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistikaning tadqiq muammolarini yechishga imkon berishi bilan nazariy ahamiyatga ega bo‘ladi. Ishning natijalari oliy ta‘lim tizimida “Nazariy tilshunoslik masalalari”, “Lingvokulturologiya”, “Psixolingvistika”, “Sotsiolingvistika” fanlari, antroposentrik lingvistika bo‘yicha maxsus kurslarni o‘qitishda, darslik va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda qo‘shimcha manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Alisher Navoiy she‘riy asarlaridagi realiyalarni lingvomadaniy aspektda o‘rganish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

tilshunoslikda realiya hodisasining yondosh tushunchalar: metafora, ksenizm va kolorit bilan farqlanishi *etak, qop, uchmoq, ulamoq, uzmoq, dasturxon, ud, so‘m, tanob* kabi misollar bilan ochib berilgan, realiyalarning lingvokulturologik birliklar tizimida tutgan o‘rni hamda leksik-semantik xususiyatlari o‘zbek xalqi madaniyati, tarixi, maishiy hayoti hamda adabiy tili bilan bog‘liq ekanligiga doir xulosalardan 60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti ixtisosligi 3-kurs bakalavriat talabalari uchun mo‘ljallangan “Terminologiya va leksikografiya asoslari” darsligining “Navoiy asarlariga tuzilgan lug‘atlar”, “Termin va terminologiya”, “O‘zbek tili so‘z boyligida sohaviy terminlar va ularning til xususiyatlari” mavzularini yoritishda foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2024-yil 29-maydagi 194-227-raqamli guvohnomasi). Natijada, darslik realiyalarning lingvomadaniy birliklar tizimida tutgan o‘rni hamda Alisher Navoiy realiyalarining mavzuviy guruhlaridan foydalanishdagi badiiy mahorati bilan boyitildi.

o‘zbek tilidagi realiyalar diaxron va sinxron aspektda realiya-neologizm, realiya-arxaizm va realiya-tarixizm turlariga ajratilib, Alisher Navoiy she‘riy asarlaridagi oziq-ovqat (*etmak, umoch, shilon, qovurmoch, chalpak* kabi), kiyim-kechak (*amoma, chachvon, kapanak, yilak, qur, iksun, xoro, xaz* kabi) tushunchalarini ifodalovchi etnografik realiyalarning lingvomadaniy xususiyatlari va lug‘aviy-badiiy jihatdan qo‘llanish sabablarini ko‘rsatib beruvchi materiallardan Buxoro viloyati teleradiokanalining “Assalom, Buxoro”, “So‘z va adabiyot”, “Xalq qadrlagan durdonalar” ko‘rsatuvlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zMETRK Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2025-yil 31-yanvardagi №01/09/55-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada mazkur teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan, ilmiy dalillarga boy bo‘lishi ta‘minlangan.

shoir poetik asarlaridagi *tutmoch, balabon, alocha, iksun, moshob, sabbog‘, assor, ra‘d, og‘ar, bilkut, arlot, yig‘och, quloch, qarich* kabi realiyalar ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maishiy, diniy-mifologik, uy-joy jihozlari, kiyim-kechak, kasb-hunar, unvon, harbiy, etnonim, urf-odat, o‘lchov nomli mavzu guruhlarini bo‘yicha tasniflanib, ularning etimologiyasi, lingvokulturologik xususiyatlari, xalq madaniyati va tilida shakllanish hamda mukammallashish mexanizmi ochib berilgan xulosalardan II-4721101717 - raqamli “Xizmat ko‘rsatish obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasini yaratish” (2022-2023-y.y.) mavzusidagi amaliy grant loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining 2025-yil 4 - fevraldagi №188-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada xalq madaniyatida realiyalarning shakllanish va mukammallashish mexanizmi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konfrensiyalarida ma'ruza qilingan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish chop ettirilgan, jumladan, bitta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 4 ta xorijiy va 5 ta respublika jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va shartli qisqartmalardan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 126 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, ishning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Realiyalarning lingvokultrologik birliklar tizimidagi o'rni”** deb nomlangan birinchi bobi olti fasldan iborat. Birinchi fasl *“Realiya va madaniyatning o'zaro munosabati”* deb nomlangan bo'lib, unda lingvistikaning nisbatan yangi yo'nalishi lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari bilan bog'liq ayrim jihatlar o'rganilgan, til va madaniyatning o'zaro bog'liqligiga doir ilmiy qarashlar yangi faktik materiallar bilan yana bir bor dalillangan, realiya va madaniyatning o'zaro munosabati ochib berilgan.

Realiyalarning muayyan koloritni aks ettirish xususiyatlari to'g'risida XX asrning 50-yillarida tilshunoslar bahs yurita boshladilar. Bu borada bir to'xtamga kelish ancha murakkab kechdi. Buning asosiy sababi, o'sha bahs yuritayotgan tadqiqotchilarning ishlarida mazkur masalaning haqiqiy mohiyati diqqat markazda bo'lgan emas. Mavjud ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida realiyalarga baho berish borasida ikki xil qarash borligini ko'rish mumkin: tarjima nuqtayi nazaridan qarash va mamlakatshunoslik asnosida yondashish.

Tarjimashunoslikda “realiya” termini muayyan xalq madaniyatiga tegishli predmet va tushunchalarni anglatadi. Realija keng ma'noga ega bo'lib, u har doim ham so'z ifodalaydigan ma'noga to'g'ri kelmaydi. U muayyan til lug'atining asosiy unsurlaridan biri bo'lib, kundalik turmushdagi predmetlarning lingvistik belgisini bevosita aks ettiradi⁷. M.L.Vaysburd realiyaga mamlakatshunoslik nuqtayi nazardan yondoshadi va bu haqida quyidagi fikrlarni aytadi: “Realiyalar muayyan mamlakat ijtimoiy va madaniy hayoti voqealari, ijtimoiy korxonalar yoki tashkilotlarning nomlari, kundalik buyum nomlari,

⁷ Вернигорова В.А. Понятие реалии в современном переводоведении. ISSN 1993-5552 Алманах современной науки и образования, -№ 3 (34), 2010, част 2.

tarixiy shaxslar nomlari va yana boshqa ko‘plab narsalar nomlaridan iborat”⁸. Ushbu fikr realiya masalasini yanada jiddiyroq o‘ylab ko‘rishga da’vat etadi. Bunda uning lingvistik terminologiyadagi izohini aniqlab olish zarurati bor. Rus olimasi L.N. Sobolevning fikriga ko‘ra, “...realiyalar – maxsus xususiyatga ega bo‘lgan, bir tilda va boshqa mamlakatlardagi tillar muhitida boshqa ekvivalentlari bo‘lmagan milliy so‘z va so‘z birikmalaridir”⁹.

Muayyan so‘zning realiya tarzida paydo bo‘lishi, avvalo, o‘sha realiya yaratilgan hudud, mamlakat, millat, elat bilan bog‘liq bo‘lishini nazardan qochirmaslik lozim. Taniqli tarjimashunos V.M.Rosselsning ta’kidlashicha, “...realiyalar tarjima qilinayotgan tilga kirib kelgan va asliyat tilida muayyan milliy, mahalliy predmet yoki tushunchalarning nomini ifodalaydigan so‘zlardir”¹⁰.

Realiyalar madaniy, ijtimoiy va tarixiy obyektlarni bildiruvchi so‘z va iboralardan iborat bo‘lib, ular taraqqiyoti madaniyatning takomillashishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayonki, bir xalqning madaniyati boshqa xalqning madaniyatiga ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko‘ra bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayrim hollarda milliy va madaniy xususiyatli predmetlarning boshqa til(lar)da mos muqobili bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun bunday predmetlar nomiga alohida yondashuv talab qilinadi¹¹. T.I.Cheremisining fikriga ko‘ra, “...realiya-so‘zlar lokal belgilangan so‘zlar hisoblanib, muayyan millatga xos urf-odatlar, maishiy predmetlarni belgilash uchun xizmat qiladi”¹².

Realiyalar to‘g‘risida haqiqatga yaqin ta’rifni S.Vlaxova va S.Florinlar berganlar, desak xato qilmagan bo‘lamiz. Ularga ko‘ra: “Realiyalar – muayyan bir xalqning hayoti, turmushi, urf-odatlari, madaniyati, ijtimoiy taraqqiyotiga oid narsa, predmet, voqea-hodisalarni ifodalovchi so‘z va so‘z birikmalari bo‘lib, ular milliy va davriy xususiyatga egadir”¹³.

Dissertatsiyaning ”*Lingvokulturologiyaning tadqiq metodologiyasi va metodlari*” deb nomlangan ikkinchi faslda *metodologiya* tushunchasining falsafiy mohiyati ochib berilgan, asosiy jihatlari va muayyan fan taraqqiyotidagi o‘rni hamda ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan, lingvokulturologik tadqiqotlar metodologiyasining maqsadi belgilangan, mazkur yo‘nalishga doir muammolarni yechish jarayonlarida qo‘llaniladigan tadqiq metodlari belgilangan.

Fanda ilmiy tadqiqot metodologiyasi va metod tushunchalari markaziy o‘rinni egallaydi. Metodologiya bilish jarayoniga dunyoqarash tamoyillarini qo‘llashni nazarda tutadi. U metodlarning umumiy nazariyasi sifatida insonning bilish faoliyatida qo‘llaniladigan metodlarni umumlashtirish zarurati bilan falsafa va muayyan fan oralig‘idagi yo‘nalish sifatida vujudga keldi. Falsafa metodologiyaga tamoyillar hamda usullarni: nazariy va amaliy faoliyatlarni taklif qilish tizimi, shuningdek, mazkur tizimni o‘rganadigan ilm sifatida qaraydi¹⁴.

Lingvokulturologiyaning tadqiqot yo‘nalishlari keng tarmoqli bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Sinxron lingvokulturologiya;
2. Diaxron lingvokulturologiya;
3. Qiyosiy

⁸ Вайсбурд М.Л. Реалии как элемент страноведения // Русский язык за рубежом. -1972. -№ 3. -С. 98-100.

⁹ Соболев Л.Н. Пособие по переводу с русского языка на французский язык. – Москва: Просвещение, 1952.

¹⁰ Росселс В.М. Эстафета слова. Искусство художественного перевода. – Москва: 1972.

¹¹ Влахов С, Флорин С. Непереводимое в переводе. Издание третье. Исправленное. – Москва: Валент, 2006. -47 с.

¹² Черемисина Т.И. Функциональный аспект неассимилированных заимствований. – Москва: 1983. -С. 27.

¹³ Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – Москва: Международные отношения, 1980. - 343 с.

¹⁴ Файзуллаев О. Фалсафа ва фанлар методологияси. –Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. -124 б.

lingvokulturologiya; 4. Chog‘ishtirma lingvokulturologiya.

Birinchi bobning uchinchi fasli “*Realialarning metaforaga munosabati*” deya nomlanib, unda realiya hamda metaforaning o‘zaro o‘xshash hamda farqli jihatlari tadqiq etilgan. Ma’lumki, metafora nutq mexanizmi, biror leksema denotatining tashqi, zohiriy o‘xshashligi asosida boshqa ma’noni ifodalash uchun ishlatilishidir. Metaforik ma’no hosil bo‘lishi uchun quyidagidan biri sabab bo‘ladi:

1) bir so‘z boshqa so‘zga nisbatan so‘zlovchining ifoda maqsadiga ko‘proq mos va muvofiq bo‘ladi va shuning uchun birinchisi o‘rnida ikkinchisi qo‘llaniladi;

2) biror denotatning ifodalovchisi bo‘lmaydi va ma’lum bir so‘z boshqa denotatni ham ifodalash uchun qo‘llanadi.

Realiya va metafora ikki xil tushuncha bo‘lib, bir-biridan farqlanadi. Metafora hosila ma’noni yuzaga keltirish usuli bo‘lsa, realiya bu milliy xarakterdagi leksik birliklardir. Metaforalarning til va nutqdagi o‘rni juda muhim hisoblanadi. Ular nutqni boyitadi, fikrni teran va ta’sirchan ifodlash uchun xizmat qiladi.

Birinchi bobning to‘rtinchi fasli “*Realialarni tasniflash muammolari*” deya nomlanib, ushbu faslda realiyalar tasnifiga doir ilmiy qarashlar o‘rganilgan. Realialar bo‘yicha S.Vlaxov va S.Florinlarning tasniflari e’tiborga molik. Ular realialarni quyidagi tartibda tasnif etishgan:

I. Ashyoviy bo‘linishga ko‘ra realialar.

1. Geografik realialar: a) geografik obyektlarning nomlari, jumladan, meteorologik nomlar; b) inson faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan geografik obyektlar nomlari.

2. **Etnografik realialar:** 1. Maishiy hayotda: a) ovqat va ichimliklar; b) kiyim-kechak; v) uy-joy, mebel, idish-tovoq;

3. **Mehnat bilan bog‘liq realialar:** a) mehnat qiluvchilar; b) mehnat qurollari;

4. **Madaniyat va san’at bilan bog‘liq realialar:** a) musiqa va raqs; b) musiqa asboblari; v) folklor; g) teatr;

5. **Urf-odatlar bilan bog‘liq realialar;** v) bayramlar, o‘yinlar; d) mifologiya; g) irim-sirim va unga sig‘inuvchilar;

6. **Etnik obyektlarni ifodalovchi realialar:** a) etnonimlar; b) laqab, taxalluslar;

7. **Ijtimoiy-siyosiy realialar:** a) ma’muriy-hududiy tuzilish; b) ma’muriy-hududiy birliklar; b) aholi yashash joylari; d) aholi yashash joylarining qismlari; e) siyosiy tashkilotlar va siyosiy arboblari; g) ijtimoiy va vatanparvarlik harakatlari; h) ijtimoiy voqelik va harakat; i) unvon, daraja va boshqalar; j) korxonalar; k) o‘quv yurtlari va madaniyat o‘choqlari; l) tabaqa va kastalar; m) kelib chiqishni ifodalaydigan belgi va tumorlar;

8. **Harbiy realialar:** a) harbiy qismlar; b) harbiy qurollar; v) harbiy xizmat qiluvchilar.

II. Hududiy bo‘linishga ko‘ra realialar.

1. Bir til doirasidagi realialar: Bunda realialar muayyan xalq yoki millatgagina tegishli bo‘lib, boshqa xalqlarlar tilida uchramaydi;

2. Muayyan millat yoki xalqning faqat bir qismi, hududiy lahjasiga yoki kichikroq elat va urug‘iga mansub bo‘lgan lokal (kichik hududiy) realialar;

3. Faqatgina birgina shahar yoki qishloqqagina xos bo‘lgan va ularninggina ijtimoiy va madaniy xususiyatini ifodalaydigan mikrolokal realialar;

4. Notanish realialar – o‘zlashma so‘zlar yoxud boshqa tillardan transkripsiya qilingan realialar:

5. Umumiy realiyalar. Bunday realiyalar ko'p tillarning leksikasida mavjud bo'ladi. Ular, odatda, o'zlarining milliy bo'yoqlarini saqlab turadi.

Davriy bo'linishga ko'ra realiyalarni zamonaviy realiyalar va tarixiy realiyalar bo'yicha tasniflab o'rganish mumkin.

Fanlarda mavjud realiyalarga doir tasniflarni o'rganish natijasida shunday xulosaga kelindiki, yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning tasnifi o'zining nisbatan aniqligi va mukammalligi bilan boshqa tasniflardan ajralib turadi. Biroq unda ayrim kemptikliklar ham yo'q emas. Masalan, ijtimoiy-siyosiy realiyalar turkumidagi ayrim tushunchalar (ma'muriy-hududiy tuzilish va birliklar; aholi yashash joylari va qismlari kabilar) hududiy bo'linishga ko'ra realiyalar turkumida ham takror ifodalangani maqsadga muvofiq kelmaydi.

Birinchi bobning beshinchi fasli "*Realialarning ksenizm va kolorit tushunchalariga munosabati*" deya nomlanib, unda nazarda tutilgan tushunchalar izohlangan, ular o'rtasidagi o'zaro munosabat ochib berilgan. Realialar haqida fikr yuritganda *ksenizm* hamda *kolorit* tushunchalariga ham oydinlik kiritib o'tish o'rinli bo'ladi. *Ksenizm* shunday so'z va iboralardan tashkil topadiki, ular chet tilida qanday yozilgan bo'lsa, o'girilayotgan tilda ham ana shunday o'zgarishsiz yoziladi. Bunda hech qanday fonetik va morfologik o'zgarishlarga yo'l qo'yilmaydi. Bir qator olimlar ksenizmlarni chet tilidan kirib kelishda o'zining fonetik xususiyatini to'liq saqlab qolgan so'zlar sifatida baholaydilar. Bu izohlardan anglashiladiki, ayrim ksenizmlar realialar bo'lishi ham mumkin. Masalan, Fransiyada yashayotgan o'zbek kishisi o'z ona tilida so'zlashadigan bo'lsa, albatta, fransuzlarning hayotiga oid ayrim so'zlarni aynan qo'llashi va yozishi mumkin¹⁵.

Kolorit esa biror narsa yoki voqea-hodisa (davr yoki hudud)ning o'ziga xos xususiyatlari majmuyidir. Shu bois u muayyan xalqqagina xoslik alomatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Bu jihat, o'z-o'zidan muayyan tarixiy davrda sodir bo'ladi¹⁶. "Kolorit" so'zi lotincha "kolor", italyanча "kolorito" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, *rang, bo'yoq, manzara, jilo* kabi ma'nolarni anglatadi. *Kolorit* tasviriy san'atda real hayotni haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o'zaro munosibligi tushunilsa, badiiy tarjimada bu iborani biror narsaning o'ziga xos belgi va xususiyatlari majmuyi deyish mumkin. Chunki, voqelikni ta'sirli tasvirlash vositasining tarkibiy qismi bo'lgan "kolorit" badiiy asarning g'oyasi, mazmuni, davri, uslubi hamda muallifning shaxsiga bog'liq bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, "kolorit" voqealikni real va ifodali tasvirlasa, ranglarning o'zaro mutanosibligi, shuningdek, kolorit biror bir narsaning o'ziga xos tomonlar majmuyini anglatadi.

Milliylik u yoki bu millatning ma'naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o'ziga xosliklardir. Ma'naviy faoliyat kishilarning xarakteri, tafakkur tarzi, ruhiyati, intilishlari, qiliqlari, yumor xususiyatlari va shu kabilarni o'z ichiga olsa, "moddiy hayot" esa urfodat, rasm-rusumlar, marosimlar, kiyimlar, uy-ro'zg'or buyumlari, anjomlar, cholg'u asboblari hamda ismlarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Badiiy asarda aks etgan mana shu milliy xususiyatlar yig'indisiga adabiyotshunoslikda "milliy kolorit" deyiladi. Misol: "ud" cholg'u asbobi. U faqatgina o'zbek millatiga mansub musiqa asbobi hisoblanadi. Milliy kolorit xalqning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, tafakkuri, fe'l-atvori, qismatini ko'rsatib turuvchi vositadir. *Milliy kolorit* tushunchasini bir nechta tarkibiy

¹⁵ Sadiqov Z. Qadimgi turkiy realialar tarjimasi (monografiya). –Namangan: Vodiy Media, 2021. –120 b.

¹⁶ Schreiber M. *Ubersetzung und Bearbeitung*. –Tuebingen: Narr Verlag, 2002. – 421 p.

qismlarga ajratib tasniflash mumkin:

1. Xalqning moddiy tirikchilik sharoitiga xos soʻzlar: *paxta, goʻza, oʻtov* va h.k.
2. Moddiy tirikchilik sharoitidan olinib, majoziy maʼnoda ishlatiladigan xos soʻzlar: *paxtadek oppoq, qoʻydek beozor, ohuday qiz* va boshq.
3. Tarjimada kishi nomlari va laqablarining berilishi. Masalan, *Meme bu yerda yoʻq, qayerdaligi tirik jonga maʼlum emas.*
4. Diniy islohotlar, tushunchalar, marosimlarning tarjimada qoʻllanilishi: “pasxa” (rus xalqiga xos boʻlgan diniy bayram); “holliy” (hind millatiga xos boʻlgan milliy bayram).
5. Jugʻrofiy nomlar: *Sayhun* (Sirdaryo), *Chin* (Xitoy) kabi.
6. Pul birliklari: *rupiy, riyol, tanga, soʻm* va boshq.
7. Oʻlchov birliklari: *chaqirim, farsang, qadam* va h.k.
8. Taom nomlari: *pirog* (somsa), *kotlet* (qiyma et), *kasha* (shovla) va boshq.

Realiyalarga davriy kolorit ham xosdir. Ular lisoniy hodisa va boylik sifatida muayyan jamiyatning tarixiy taraqqiyotida oʻziga xos rol oʻynaydi va jamiyatdagi oʻzgarishlarga oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Realiyalarni davriy xususiyatiga koʻra realiya-neologizm, realiya-arxaizm, realiya-istorizm kabi guruhlariga ajratish mumkin.

Birinchi bobning oltinchi fasli “*Realiya-neologizm, realiya-arxaizm va realiyatarixizmlar*” deya nomlangan. Ayonki, neologizmlar hozirgi zamonda paydo boʻlgan yangi leksik birliklardir. Realিয়া – neologizmlar oʻzbek madaniyatida koʻp emas. Bunga *mahallabay* soʻzini misol sifatida keltirish mumkin. Oʻzbek madaniyatiga mazkur soʻzning kirib kelganiga hali koʻp vaqt boʻlgani yoʻq. Mahalladagi mavjud muammolarni hal etish birgina mahalla tizimi xodimlari tomonidan bartaraf etish imkonsizligi sababli bu jarayonga hokimiyat tizimidagi har bir soha masʼullari jalb etiladi. Mahallabay ishlash mexanizmining asosini barcha soha vakillarining hududlardagi masalalarni yechishga kompleks yondashish tashkil etadi.

Maʼlumki, arxaizmlar shakli oʻzgarib, maʼnosi saqlangan soʻzlardir. Shunday soʻzlar borki, ular tariximizning maʼlum davrida milliy xarakterdagi soʻzlar boʻlib, bugungi kunda esa ularning shakli oʻzgarib, maʼnosi saqlangan. Masalan, eski oʻzbek adabiy tilidagi “abo” leksemasi “yengsiz ustki kiyim” maʼnosida qoʻllanilgan. Bugungi kunda xuddi mana shu maʼno adabiy tilda “nimcha”, shevalarda esa “ichakcha” leksemasi orqali ifodalanadi. Yoki kasb-hunar maʼnosini anglatuvchi “baxyasoz” leksemasi *doʻppi tikuvchi* maʼnosini anglatib, bugungi kunda xuddi shu maʼno “doʻppidoʻz” leksemasi orqali beriladi.

Istorizmlar esa isteʼmoldan chiqqan soʻzlardir. Ular orasida realiya-istorizmlar ham mavjud. Masalan, eski oʻzbek adabiy tilidagi milliy mato turlarini ifodalovchi *qasab, qumosh, saqarlot* kabi leksemalar; kiyim nomlarini anglatuvchi *xirqa, qabo* kabi kiyim nomlarini anglatuvchi soʻzlar tarixiy realiyalardir.

Dissertatsiyaning “**Navoiy sheʼriy asarlaridagi etnografik realiyalarning lingvomadaniy xususiyatlari**” deb nomlangan ikkinchi bobi toʻrt fasldan iborat boʻlib, “*Oziq-ovqat va ichimlik nomlari*” deb nomlangan birinchi faslda Navoiy sheʼriy asarlaridagi oziq-ovqat hamda ichimlik nomlari tadqiq etilgan. Buyuk adibning sheʼriy asarlari tilida turli sohalarga oid realiyalar mavjud boʻlib, ayniqsa, oziq-ovqat, ichimlik hamda oʻsimlik nomlari bu tizimda muhim oʻrin tutadi. Alohida eʼtirof etish oʻrinliki, bunday realiyalar uzoq tarixga ega xalqimizning ijtimoiy va madaniy hayoti haqida ahamiyatli hamda muhim maʼlumotlar beradi.

*Tinch ko'ngul birla qatiqsiz umoch,
Behki birov minnati birla kuloch.* [NSh,180]

Baytda insoniylik fazilatlarini tavsiflangan. Navoiy fikricha, birovning minnati bilan shirin kulcha yegandan ko'ra qatiqsiz umoch yegan ma'qul. Shoir baytda kishilarning tabaqalashgan tuzumida umoch yo'qsullar yeydigan taom, kuloch esa badavlat insonlar yeydigan shirin kulcha ekanligini bildirmoqchi bo'ladi. She'riy parchada bir emas, uchta oziq-ovqat turi qo'llangan bo'lib, ular: *qattiq, umoch, kuloch*dir. *Umoch* uvalangan xamir solib pishirilgan suyuq osh taomidir. Ushbu leksema hozirgi o'zbek adabiy tilida iste'molda emas. Faqatgina, ayrim shevalardagina saqlanib qolgan xolos. Bu taom, odatda, marosimlarda tayyorlanadi.

Navoiy asarlarida mazkur taom turi ko'p qo'llanilganligini kuzatish mumkin. Bunga misol tarzida "Muhokamat ul-lug'atayn" asaridagi quyidagi jummalarni keltirib o'tamiz: "Va yana ba'zi yemaklardan *qaymog'* va *qatlama* va *bulamog'* va *qurut* va *uloba* va *mantu* va *quymog'* va *urkamoch*ni ham turkcha ayturlar. Va *qimiz*ni va *suzmani* va *boxsumni* va *bo'zani* dag'i turkcha ayturlar. Yana *tutmoch* va *umoch* va *kumoch* va *tolg'onni* ham turkcha ayturlar. Va bu nav' juz'iyotqa mashg'ulluq qilsa bag'oyat ko'p topilur¹⁷.

Adib asarlarida *qimiz* taom nomini ham qo'llagan bo'lib, u, odatda, biya sutidan maxsus idishlarda bijg'itish yo'li bilan tayyorlanadigan, yengil kayf beruvchi, shifobaxsh ichimlikdir. Ushbu ichimlikni ifodalovchi leksema hozirgi o'zbek tilida mavjud. *Qimiz*, odatda, qipchoq lahjasida so'zlashuvchi xalqlarning ichimligi sifatida qaraladi.

Adib asarlarida qo'llangan taom nomlarining lug'atlardagi ifodasiga doir jadvalni quyida keltirib o'tamiz:

1-jadval

Devonu lug'otit-turk	ANATIL	Kelurnoma	O'TIL	Etimologik lug'at
qurs	qurs		kulcha non	
ko'mach	ko'moch/kumoch		ko'moch	
	chalpak	Chalpak	chalpak	chalpak
sarmachuq	tutmoch		ugra osh	
uvmach	umoch		umoch	umoch
	bulamig'		bulamiq	bulamog'
qo'g'irmoch	qovurmoch	qavurmach	qo'g'irmoch	qo'g'irmoch
talqan/tolqon	tolg'on/tolqon		tolqon	talqon
	so'kboch		so'kosh	

Ikkinchi bobning "*Kiyim-kechak realiyalari*" deya nomlangan ikkinchi faslida Navoiy asarlaridagi kiyim-kechak nomlari lingvomadaniy aspektida tadqiq etilgan. Shoir she'riy asarlarida qo'llangan turli sohalarga oid leksik birliklar qatorida maishiy sohaga oid so'zlarni, xususan, kiyim-kechak leksemalarini tadqiq qilish xalqimizning o'sha davrdagi turmush tarzi, madaniyati, urf-odati, an'analari, jamiyat va til tarixi hamda o'zbek tilining lug'at boyligidan boxabar bo'lishda muhim rol o'ynaydi.

*Ko'nglaking bargi gulu ustida gulrang yilak,
Gul kibi jisming uza uylaki, gulgun ko'nglak.* [NN, 349]

Yor timsoli baytda milliy kiyimlar vositasida tasvirlangan. Ma'lumki, eski o'zbek adabiy tilida *qamis*, *pirahan* leksemalari ko'ylak ma'nosini anglatgan. Baytda qo'llangan

¹⁷Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildli. 16-jild. –Тошкент.: Fan, 2000. -157 b.

yilak soʻzi hozirgi oʻzbek tilida *nimcha* nomi bilan yuritiladi. Bu kiyim xotin-qizlarning yengsiz va yoqasiz kalta ustki kiyimi boʻlib, koʻylak ustidan kiyiladi. Uning bichimi turlicha – oldi ochiq (uchburchak shaklda chuqur oʻyilgan), tugmachali, avra-astarli, baʼzan ikki yonida choʻntaklar qilingan. Avrasi baxmal, parcha, kimxob, shoyi va boshqa matolardan, astari ip matolardan tayyorlanadi; duxobadan yoqali va yoqasiz qilib, baʼzan orasiga yupqa paxta solib qavib paxtali nimchalar ham tikiladi.

Kashta tikib bezatilgan, zardoʻzi va iroqi yilaklar hozirda ham keng tarqalgan. Asosan, koʻylak ustidan kiyiladi. Oʻzbek milliy madaniyatiga koʻra ayollar qaddi-qomatini hammaga namoyish qilmaslik uchun yakka koʻylak bilan emas, balki yilak bilan yurishgan. Bu kiyim bugungi kunda “jaket”, “nimcha” soʻzlari bilan ifodalanadi. *Yilak* soʻzi hozirgi oʻzbek adabiy tilida arxaizm leksema sanaladi.

Turfa aboyi anga istab koʻngil,

Rangi saqarlot bila dolu gul. [HA, 288]

Abo yengsiz ust kiyim turi boʻlib, baytdagi maʼnosi shuki, koʻngil har xil yengsiz ust kiyimlarni istaydi, ularning rangi nafis shafaq matoga chizilgan *dol* shaklidagi gul rangiga oʻxshaydi. *Saqarlot* leksemasi nafis shafaq mato nomini anglatadi. Qadimiy kashtachilik tarixida *saqarlot* soʻzi keng qoʻllangan. Mazkur baytdagi *abo* soʻzi arabiy boʻlib, choponga oʻxshash jun kiyim maʼnosini ifodalaydi. Avrasi jun yoki boshqa matodan tikilgan uzun, keng, lekin yengi kalta erkaklar ust kiyimi *abo* deb nomlangan.

Beliga zarrishta qurin band etib,

Balki, zarofat bila takband etib. [HA, 111]

Qadimgi turkiy *qur* soʻzi *belbogʻ* maʼnosini ifodalaydi. *Belbogʻ* qoʻshma ot boʻlib, qadimgi turkiy tilda *bel bagʻi* birikmasining bir soʻzga birlashuvidan yuzaga kelgan, keyinchalik egalik qoʻshimchasi talaffuz etilmay qoʻygan. Milliy madaniyatimizda *qur* muhim oʻrin tutadi. Ayniqsa, toʻy-marosimlarda bu matoga alohida eʼtibor berilgan. Masalan, uylanadigan kuyovlarga toʻyda sarpo kiydirilib, beliga *qur* bogʻlangan. Taziya marosimlarda ham marhumning yaqin erkakalari *belbogʻ* bogʻlashadi. Bundan tashqari, biror hunarni oʻrganib tugatgandan soʻng, ustoz tomonidan shogirdning beliga *belbogʻ* bogʻlangan. Bulardan anglashiladiki, turkiy, chunonchi, oʻzbek xalqi madaniyatida *belbogʻ* katta ahamiyatga ega material hisoblanadi.

Qur soʻzi XI asr tilida *qurshagʻ* soʻzi bilan ham ifodalangan. *Bu* soʻz *qurshamoq* (oʻramoq) feʼlidan olingan boʻlib, “Devonu lugʻatit turk”da bu soʻz (قرشاغ) *qurshagʻ* shaklida beriladi va *belbogʻ*, *bogʻ*, *oʻrama* tarzida izohlangan. Mazkur soʻz *oʻtov ustidan aylantirib bogʻlanadigan jiyak*, *oʻtov jiyagi*, *arqoni* maʼnosida ham qoʻllanilgan. XIV-XV asr va soʻnggi davr manbalarida *qur* soʻzining maʼnodoshi sifatida *poʻta* soʻzi ham uchrab turadi. *Qur*, *qurshogʻ*, *belbogʻ* soʻzlarining tarixiy rivojlanishi yuzasidan oʻtkazilgan kuzatishlar shuni koʻrsatdiki, *qur* soʻzi oʻrnida keyingi asrlarda *belbogʻ* soʻzi qoʻllana boshlagan.

Bir qadah gulgun may, ey soqiy, toʻla tutkim, koʻngul

Ul buti gulgun qabo bedodidin gʻamgin erur. [BV,145]

Qabo – erkaklarning keng va uzun ust kiyimi, asosan, jubba ustidan kiyiladi. Bu soʻz *ustki kiyim*, *chakmon* maʼnosini ifodalagan. Ayrim tarixiy-badiiy asarlar tilida mazkur soʻz qoʻllanganligini kuzatish mumkin. Masalan: *Xonzoda begimning nafis qaddi-qomati, ipak matodan kiygan kamalakday tovlanuvchi qabosi Axmad Tanbalga bugun har qachongidan ham jozibali koʻrinadi.* P. Qodirov, “Yulduzli tunlar”.

Ikkinchi bobning “*Musiqaga doir realiyalar*” deb nomlangan ikkinchi faslida

Navoiy asarlaridagi nazarda tutilgan realiyalar tadqiq etilgan. Shoir asarlarida qo‘llangan musiqaga doir realiyalarni quyidagi mavzuviy guruhlar bo‘yicha tasniflab, o‘rganishga harakat qildik:

1. Musiqa asboblarning nomi: *qo‘buz* (eski turk cholg‘usi), *qonun* (bir turli musiqa asbobi), *arg‘anun* (bir turli cholg‘u asbobi; organ), *barbat* (o‘rdak shaklida yasalgan qadimgi cholg‘u asbobi), *yorod* (bir turli cholg‘u asbobi), *yotug‘on* (bir turli cholg‘u asbobi), *ko‘raga* (surnay), *ko‘s* (katta nog‘ora, podsho qasrida chalinadigan katta nog‘ora), *musiqor* (bir xil cholg‘u asbobi), *tanbur*, *tanbura* (tanburning kichik bir turi) va boshq.

2. Kuy nomlari: *Qari Navoiy* (kuy nomi), *arg‘ushtak* (musiqiy bir usul, o‘yin), *dovudi* (musiqada bir kuyning nomi), *yegdi g‘izol* (musiqada asosiy kuylardan biri), *mohur* (kuy nomi), turki hijoz (kuy nomi) *tajnis* (musiqada eng og‘ir va murakkab kuylardan biri), *chorgoh* (o‘zbek mumtoz shashmaqom kuylaridan birining nomi), *chorzarb* (o‘zbek musiqiy kuyining nomi) va h.k.

Soqiyo, may to‘lakim arbada istar ko‘nglum,

Ey qalandar, chola boshla o‘kurur ko‘kta qo‘buz. [XM,183]

“Qo‘buz – eng eski turk cholg‘usidir. Turklarning ibtidoiy zamon shoirlari bo‘lgan baxshilar – o‘zonlarning cholg‘ulari qo‘buz edi. “Devon-ul-lug‘ot” kabi eski turk lug‘atida “qo‘buz”, “qo‘buzlamoq” kabi so‘zlar bo‘lg‘anidek, Navoiy, Lutfiy, Mirxaydar Majzub kabi ko‘b Chig‘atoy shoirlarining asarlarida ham “qo‘buz” ismiga uchramoq mumkindir”¹⁸. Fitratning risolasida qo‘buz chalgan kishilar o‘zon nomi bilan atalishi, shuningdek, insonlar bir- birlari bilan gapirishmakchi bo‘lsalar avval qo‘buz chalib so‘ngra gap boshlashgani, uni chalishni bilmagan kishilarni esa “sen yolg‘onchisan” deb shaxardan quvganliklari haqida ma‘lumotlar berilgan.

Ikkinchi bobning to‘rtinchi fasli “*Realialarning lug‘aviy qatlamlarga munosabati*” deb nomlanib, unda Navoiyning she‘riy asarlaridagi realialarning genetik manbalari o‘rganilgan.

2-jadval

turkiy	<ul style="list-style-type: none"> • umoch, chalpak, qatiq, qo‘g‘irmoch, kuloch, shilon, ko‘moch, bulamog‘, uloba, urkamoch, qatlama; • yotug‘on, barbat, bulamon, qo‘biz, ko‘raga, chang, chag‘ona arg‘ushtak; • chopon, qur, burunchak, to‘n, kisvat, kapanak, yilak.
forsiy	<ul style="list-style-type: none"> • romish, rost, tarona, chorgoh, ko‘s, ko‘szan, musiqor, nay • chaspon, pirahan, xoro, chashmband, dastor.
arabiy	<ul style="list-style-type: none"> • qonun, bam, dovudi, arg‘anun, tajnis, talolo, tanbur, nag‘ma, rahba • xil‘at, janda, abo, qabo, miqna, zunnor, jubba, xaz, rido, amoma

¹⁸ Abdurauf F. O‘zbek klassik musiqasi tarixi. – M.: 1926. –B. 30.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Navoiy she’riyatidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maishiy, diniy mifologik realiyalarning lingvokulturologik tadqiqi**” deb nomlangan bo‘lib, besh fasldan iborat. Uning birinchi faslida *kasb-hunar, unvon, darajaga doir realiyalar* tadqiq etilgan. Realialarning tarkibiy qismida alohida o‘ringga ega kasb-hunar nomlari shoir ijodida ko‘plab uchraydi. Bu fikrni dalillash uchun adib she’riy asaridagi quyidagi misolni keltirib o‘tish mumkin:

*Azraq uzakim bo‘lubon baxyasoz,
Anjumi nahsi falaki naqshboz.* [HA,139]

Bayt tavsifi: “Yulduzlar go‘yo jiyak tikuvchi bo‘lib, hiylakor falakni baxtsiz etdi”. Ushbu baytda majoziy ma’no ifodalangan bo‘lib, yulduzlarning bir tizimda tizilib turishi baxyasoz, ya’ni jiyak tikuvchi faoliyatiga qiyoslangan. ANATILda baytdagi so‘zlarning bugungi kundagi tabdili quyidagicha ifodalangan: *anjum* - osmon; *azraq* - yulduzlar; *naqshboz* – o‘yinchi, hiylagar; *nahs* – baxtsizlik; *uza* – uzaymoq, cho‘zilmoq. *Baxyasozlik* qadimiy hunarmandchilik turlaridan biri sanalib, o‘zbek xotin-qizlari ushbu hunarni puxta egallagan. O‘TILda bu so‘z *baxyado‘z* shaklida izohlangan. So‘zning o‘zak qismi *baxya* chok, kiyim-kechakning to‘g‘ri chok bilan bostirilgan qirg‘og‘i (cheti, zihi) va shunday chokning o‘zi. *Baxya* leksemasi forsiy o‘zlashma qatlamga mansub bo‘lib, eskirgan leksema sanaladi. Qiyoslaydigan bo‘lsak, ANATILda ushbu so‘z “jiyak tikuvchi” tarzida izohlangan bo‘lsa, O‘TILda bu so‘z “chok, kiyimning cheti, qirg‘og‘i” tarzida izohlangan.

*Bo‘lub sadqasi charxi davvor uyi,
Qilib davra, andoqki assor uyi.* [SI, 26]

Ushbu baytda hunarmandchilikka doir *juvozkash* va *yog‘chi* so‘zlari qo‘llangan. Zamonaviy texnikalar mavjud bo‘lmagan avvalgi davrlarda mohir hunarmandlar tomonidan yasalgan uskunalar vositasida *yog‘* mahsuloti tayyorlangan. Bu o‘zbek xalqining qadimiy hunarmandchilikka ega bo‘lganligidan dalolat beradi. ANATILda mazkur leksemalar quyidagicha izohlangan: *assor* – juvozkash, *yog‘chi*; *davvor* – aylanuvchi charx uruvchi. O‘TIL da *assor* leksemasi mavjud emas. Bu so‘z o‘rnida *juvoz* leksemasi izohlangan. Yuqorida nomi qayd etilgan lug‘atda bu so‘z quyidagicha izohlangan: “1. O‘simliklar urug‘idan, xususan, chigitdan moy chiqaradigan qurilma; moyjuvoz. *Qo‘shni hovlidan chuchitilgan juvoz moyining isi keladi.* S. Ahmad, Hukm. 2. Sholi oqlaydigan qurilma; objuvoz”.

Mazkur mahsulot nomi bilan *-kash* qo‘shimchasi vositasida kasb-hunar oti shakllangan. *Juvozkash* so‘zi forsiy o‘zlashma qatlamga tegishli bo‘lib, uning asl lug‘aviy ma’nosi *juvoz tortuvchidir*. O‘TILda u quyidagicha izohlangan: “1. Juvoz haydovchi, juvozxona (objuvoz yoki moyjuvoz)da ishlovchi ishchi. *Juvozkash darvozani ichidan zanjirlab oldi.* T.Murod. Qo‘shiq”.

Nazarda tutilgan bobning ikkinchi fasli “*Harbiy sohaga doir realiyalar*” deya nomlanib, unda harbiy sohaga oid madaniy birliklar o‘rganilgan.

*Boshikim tark tojiddin barumand,
Bo‘lub tojig‘a gardun tugma monand.* [FSh, 30]

Baytda keltirilgan “tark” leksemasi ANATILda quyidagicha izohlangan: “*Tark* jangda kiyiladigan dubulg‘a”. Bu termin tarixiy leksema sanaladi.

*Sipahning qirog‘ig‘a chun yettilar,
Ravon ra‘d asbobi soz ettilar.* [SI, 275]

Avval ta'kidlanganidek, XIV asrning ikkinchi yarmi, ya'ni aynan Amir Temur davrida O'rta Osiyoda ra'd nomli o't sochar qurol paydo bo'ldi. Zambarakning ushbu turi va uning qo'yilishi xususida Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida aniq ma'lumot keltirilgan.

Uchinchi bobning uchinchi fasli "*Etnonim va urf-odat realiyalari*" deb nomlangan. Navoiyning she'riy asarlari tilida etnonimlar muhim o'rin tutadi. Shoir ijodida xalq-urug' nomlari alohida leksik va madaniy tizim sifatida shakllangan bo'lib, ular o'zbek xalqining yashash tarzi xususida aniq tushunchalar beradi. Mazkur nomlarining ayrimlari hozirgi o'zbek xalqining kundalik turmushida faol iste'molda bo'lsa, ba'zilari eskirib, tarixiy so'zga aylangan. Dastlab, o'zbek xalqi tarkibiga kiruvchi urug' hamda qabila nomlarini tahlil etishga harakat qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Adibning quyidagi baytiga e'tibor qarataylik:

Ey Navoiy, manga bas ul sanami lo'liyvash,

Bekka qipchoq-u og'ar, shahg'a qiyot-u bilgut. [G'S, 54]

Baytdagi *qipchoq, og'ar, qiyot, bilgut* kabi nomlar o'zbek xalqining etnik tarkibidagi katta ahamiyatga ega bo'lgan urug' nomlari hisoblanadi. ANATILda *qipchoq* qadimiy turkiy urug'lardan biri ekanligi aytilgan. O'TILda esa u quyidagicha izohlangan: "*Qipchoq* – ko'chmanchi turkiy xalqning nomi". *Qiyot* o'zbek urug'laridan biri bo'lib, ular XI-XII asrlarda Mo'g'ulistonda yashab ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullangan. O'TILda *bilkut* xalq nomi quyidagicha izohlangan: "*Bilkut* – qadimiy turkiy qabilalardan birining nomi. O'sha kezlarda Ulug'bekka otaliq qilib turklarning *bilkut* qabilasidan chiqqan yirik amir Shohmalik tayinlanadi. B. Ahmedov, Ulug'bek".

Yuqorida keltirilgan *qipchoq, qiyot, bilkut* kabi etnik nomlar xalqimizning qadimiy urug'-qabila tizimida katta mavqega ega bo'lgan nomlar sanaladi.

Ey Navoiy, naylay el tarxon bila barlosini

Kim, berur ko'nglumga holo molish ul sho'xi malash. [G'S, 216]

Ushbu baytdagi *tarxon* hamda *barlos* leksemalari xalq-urug' nomlarini anglatuvchi leksemalar bo'lib, ular qadimiy elat nomlaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega. ANATILda *tarxon* leksemasi quyidagicha izohlangan: "*Tarxon* – podshoh tomonidan beriladigan unvon bo'lib, unga sazovor bo'lgan kishilar soliqdan urushga safarbarlikdan ozod qilingan; o'zbek elatlaridan birining nomi". Ular Temuriylar va Boburiylar davrida, asosan, O'rta Osiyoning janubiy hududlarida, qisman, Afg'oniston va Hindistonda yashagan, aksariyat chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan o'zbek qabilalaridan biri hisoblanadi.

Amir Temur barlos qabilasidan bo'lib, sarkarda va viloyat amirlarini, asosan, shulardan tayinlagan. Barloslarning bir guruhi Temuriylar va Boburiylar davrida Afg'oniston va Hindiston hududiga ko'chib o'tgan. XIX asrda birgina Dehli shahri atrofida 15 ming barlos yashaganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Ammo barlos qabilasining asosiy qismi O'zbekistonning janubiy hududlarida qolib, dehqonchilik va chorvachilik bilan mashg'ul bo'lgan. Barloslar o'zbek tilining qarluq-chigil lahjasida so'zlashgan.

Barloslar Kesh (hozirgi Shahrisabz) hududini nazorat qilgan va uning barcha nasl-nasabi shu hudud bilan bog'langan. Ko'chmanchi bo'lib qolgan qo'shni qabilalarning aksariyatidan farqli o'laroq, barloslar o'troqlashgan qabila edi. O'rta Osiyoning tub

aholisi bilan keng aloqalar tufayli qabila islom dinini hamda arab va fors tillarining kuchli taʼsirida boʻlgan qarluq tarmogʻiga mansub turkiy chigʻatoy tilini qabul qilgan edi¹⁹.

*Navoiy sevdi bir loʻliyni kezdeg rubʻi maskunda,
Agar arlot, agar barlos, agar tarxon, agar sulduz.* [NSh, 149]

Arlot (arlat, allot) oʻzbek urugʻlaridan birining nomi hisoblanadi. Abulgʻoziy Bahodirxonning „Shajarayi turk“ asarida *arlot* soʻzining maʼnosi xususida quyidagicha fikr ifodalangan: „*Arlatning maʼnosi otaning sevar oʻgʻli* temak boʻlur. Arlat bir kishining oti turur. Ani otasi koʻp sevar erdi. Aning uchun *arlat* tedilar. Barcha arlat eli aning nasli tururlar“²⁰. Manbalarga koʻra, Chingizxon tomonidan Chigʻatoy ulusini boshqarish uchun ajratilgan toʻrt ming kishilik qoʻshin boshliqlaridan biri ham *arlot* urugʻidan (qolgani *jaloyir, barlos, qavchin*) boʻlgan. Arlotlar Amudaryodan janubda, Janubiy Turkiston hududiga oʻrnashganlar. Keyingi asrlarda hozirgi Oʻzbekistonning janubiy viloyatlari, shuningdek Xorazmga koʻchib oʻtganlar. Bu nom hozirgi vaqtda etnonim va baʼzan toponim sifatida Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida koʻproq uchraydi. Buxoro viloyatidagi Olot shahrining nomi ham *arlot* soʻzining fonetik oʻzgarganidir.

Manbalarda *sulduz* qabilasi quyidagicha izohlangan: „*Sulduz* (Suldus) – turklashgan moʻgʻul qabilalardan biri“. Sulduzlarning katta bir guruhi Chingizxon qoʻshini tarkibida Dashti Qipchoq va qisman hozirgi Oʻzbekiston hududi hamda Afgʻonistonning shimoliga kelib joylashgan, keyinchalik Ozarbayjon, Eronga ham oʻtishgan.

*Yana mangʻit oʻzbek bila yondashib,
Iki zulfdek tuzlari chirmashib.* [SI, 189]

Baytda *mangʻit* va *oʻzbek* urugʻlarining nomi keltirilgan boʻlib, ular azaldan yonma-yon yashab kelgan yirik qabilalardan sanaladi. *Mangʻit* turkiy xalqlar tarkibiga singib ketgan yirik qabilalardan birining nomi hisoblanadi.

Uchinchi bobning toʻrtinchi fasli „*Bayramlarni ifodalovchi realiyalar*“ deb nomlangan. Navoiyning sheʼriy asarlari tilida bayram va maraka-marosim nomlari ham muhim oʻrin tutadi. Shoir ijodida bayram, maraka-marosim nomlari alohida leksik va madaniy tizim sifatida shakllangan boʻlib, ular oʻzbek xalqining yashash tarzi xususida aniq tushunchalar beradi. Mazkur bayram, marosim nomlarining ayrimlari hozirgi oʻzbek xalqining kundalik turmushida faol isteʼmolda boʻlsa, baʼzilari eskirib, tarixiy soʻzga aylangan. Adibning quyidagi baytiga eʼtibor qarataylik:

*Visol ayyomi tong yoʻq ochsa ruxsor,
Ki doim ochilur gul boʻlsa navroʻz.* [GʻS, 184]

Baytda keltirilgan *navroʻz* leksemasi hozirgi oʻzbek adabiy tilida isteʼmolda mavjud boʻlgan leksema boʻlib, morfologik jihatdan ot soʻz turkumini ifodalaydi, fonetik tarkibi oʻzgarishga uchramagan. Milliy bayramlardan biri sifatida uzoq tarixga ega. Abu Rayhon Beruniy „Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar“ kitobida Quyosh yili hisobida yilning birinchi oyi deb sanalgan. U bu xususida quyidagilarni yozadi: „Navroʻz yilning birinchi kuni boʻlib, uning forscha nomi ham shu maʼnoni anglatadi.

¹⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. – 169 б.

²⁰ Abulgʻoziy B. Shajarayi turk. –Toshkent: Choʻlpon, 1992.

Navro‘z eronliklar „zij“lari bo‘yicha o‘tmish zamonlarda, ular yillarini kabisali qilgan vaqtlarida Quyoshning Saraton burjiga kirish paytiga to‘g‘ri kelar edi. So‘ngra u orqaga surilgach, bahorga keladigan bo‘ldi. Endi u butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya‘ni bahor yomg‘irining birinchi tomchisi tushishidan, gullar ochilgan, daraxtlar gullashidan mevalari yetilguncha, o‘simlik unib chiqa boshlashdan takomillashguncha davom etgan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro‘z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan”²¹.

Uchinchi bobning beshinchi fasli “*O‘lchov birliklari realiyalari*” deb nomlanib, unda o‘lchov birliklarini ifodalovchi realiyalar o‘rganilgan, ularning o‘zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni ochib berilgan. Navoiy she‘riyatida uzunlik-o‘lchov nomlari mavzu g‘oyasidan kelib chiqib, mahorat bilan qo‘llanilgan.

Tanobeki, massoh qildi, qulach,

Qilib o‘n iki ming, qari bir yig‘och. [SI, 143]

Ushbu baytning o‘zida shoir bir necha o‘lchov birliklarining nomini mahorat bilan qo‘llaganini ko‘rish mumkin. Avvalo, *tanob* so‘ziga e‘tibor qaratsak. *Tanob* eski o‘lchov birligi bo‘lib, maydonni o‘lchashda ishlatilgan. O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekiston hududida 39,9 metrga teng uzunlik o‘lchov birligi sifatida iste‘molda bo‘lgan. Navoiy asarlarida ham *tanob* faol iste‘molda bo‘lgan. *Tanob*dan yuza o‘lchov birligi sifatida ham foydalanilgan. O‘rta Osiyo xonliklarida tomonlari 60 gazdan iborat maydonga teng bo‘lgan. Hozirgi hisobda 900 kvadrat metrga teng ekin maydoni 1 *tanob* sanalgan. 12 *tanob* 1 gektar bo‘lgan.

Navoiy asarlari tilida *qulach* leksemasi ko‘p qo‘llangan. XI asrning buyuk tilshunosi Mahmud Koshg‘ariy turkiy tillarga oid “*qulach*” so‘zini *qo‘lingni och, qulochni yoz* ma‘nosida talqin qiladi. “*Qulach*” so‘zi tojik tiliga “*quloch*” shaklida, afg‘on tiliga esa “*chulach*” tarzida o‘tgan bo‘lib, u taxminan 165-175 sm ga teng yoki 8 qarich *bir quloch* bo‘lgan. *Bir quloch* turli joylarda turlicha bo‘lib, Buxoroda 142 sm, Farg‘onada 167 sm deb olingan. Izohli lug‘atga ko‘ra, *qulach* yelka balandligida kerilgan har ikki qo‘lning o‘rta barmoq uchlari orasidagi masofaga teng. Demak, bir *quloch* o‘rtacha 140-170 santimetr yoki 1,5 metr atrofidagi o‘lchov birligidir²².

Yor chun jonimda maxfiydur tafovuti yo‘qturur,

Jilva qilsa zohiran gar ming yog‘ach, gar bir arash. [NSh, 181]

Baytda kontekstual antonimiya qo‘llanilgan bo‘lib, ular *maxfiy - zohiran; yog‘och* hamda *arash* leksemalari orqali yuzaga chiqqan. *Arash* so‘zi ANATILda izohlanishicha, 50-60 sm uzunlik o‘lchovi hisoblanadi. *Yog‘ach* so‘zi esa qadimgi o‘lchov birligi bo‘lib, katta masofalardagi yo‘l uzunligini o‘lchashda qo‘llanilgan. Ba‘zi adabiyotlarda *farsang, sang, tosh* tarzida ham uchrab turadi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, 12 ming qadam 1 *yog‘och* deb qabul qilingan. Agar bir qadam 0,75 m bo‘lsa, u holda bir *yog‘och* 9 km ga teng bo‘ladi Bu natija Boburning Samarqand bilan Buxoro oralig‘idagi masofa 25 *yog‘ochga* teng deb bergan ma‘lumotiga ancha yaqin keladi.


Shoir asarlarining genetik manbayida forsiy va arabiy o‘zlashma qatlamga tegishli realiyalar ko‘p uchraydi. *Forsiy* o‘zlashma so‘zlarga *lashkarkash* (qo‘shin boshlig‘i, qadimda qo‘mondonlik lavozimi hisoblangan, harbiy askarlarning bir

²¹ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-tom. –Toshkent: Fan, 1968.

²² Dadaboyev H. “Devonu lug‘atit turk”ning til xususiyatlari. –Toshkent: TDSH, 2017. –B. 66-67..

nechtasiga bosh bo‘lgan shaxs sanalgan), *marzbon//marzubon* (soqchi, qo‘riqchi), *avon* (davlat posboni lavozimi), *kulahdor* (amaldor lavozimi), *sipahdor* (lashkarboshi lavozimi), *baxyasoz* (tikuvchi shaxs), *juvozkash* (o‘simliklardan moy oluvchi shaxs), *shabgard* (tun qoravuli vazifasini bajaruvchi) kabilarni misol tarzida keltirib o‘tish mumkin. Arabiy o‘zlashma so‘zlarga esa *sarrof* (pul maydalovchi, pul almashtiruvchi shaxs), *sovut* (jangda kiyiladigan temir qoplama), *sayf* (qilich), *siloh* (harbiy qurol-aslaha) kabilarni aytib o‘tish mumkin.

Navoiy asarlarida realiyalarning mavzu doirasi ancha keng bo‘lib, ular madaniy hayotning turli sohalariga tegishliligi bilan alohida ajralib turadi. Shoir ulardan asarlaridagi muayyan badiiy g‘oyalarni ifodalashda, ularning badiiy-estetik darajasini oshirishda foydalangan. O‘zbek xalqi madaniyatining deyarli barcha xususiyatlari adib asarlarida to‘liq o‘z ifodasini topgan, desak xato qilmagan bo‘lamiz. Shunga ko‘ra uning asarlarini lingvomadaniy aspektda o‘rganish nafaqat madaniyatshunoslik va adabiyotshunoslik, balki tilshunoslik fani uchun ham juda muhim va ahamiyatli masalalardan biridir (3-rasm).



3-rasm. Shoir asarlaridagi realiyalarning miqdoriy ko‘rsatkichlari.

Masala doirasidagi o‘rganishlar ayrim xulosalarni chiqarishga asos bo‘ldi. Bu xulosalar quyidagilardan iborat:

1. Navoiy asarlarida lingvokulturologik birlik realiyalar alohida tizim sifatida shakllangan. U o‘zbek madaniyatiga tegishli birliklarni juda yaxshi bilganligi bois ulardan o‘z asarlarida o‘rinli va samarali foydalangan. Uning bu boradagi ijodiy faoliyatini yuqori darajada baholash mumkin.

2. Shoir asarlaridagi realiyalar tadqiqi natijalari shuni ko‘rsatdiki, u yashagan davrda o‘zbek xalqi madaniyati ancha taraqqiy etgan. Bu madaniyat keyingi davrlar madaniyatining uzviy davomi sifatida mavjud bo‘ldi, uning rivoji va takomili uchun asos vazifasini bajardi. O‘zbek xalqi madaniyati eng qadimgi va yuksak darajada

taraqqiy etgan madaniyatlardan biridir, degan xulosaviy fikrni ikkilanmay aytishga adib asarlarida qo‘llangan realiyalar aniq faktdir.

3. Realialar muayyan til lug‘atining qanday darajada ekanligini belgilab beradi. Shunga ko‘ra Navoiy asarlarida qo‘llanilgan realiyalar miqdori ko‘p ekanligi va bitta realianing bir necha leksik birlik bilan ifodalanishi o‘zbek tilining so‘zga boyligini yana bir bor namoyon etadi.

4. Adib asarlaridagi realiyalar turli, chunonchi, umumturkiy (to‘n, qur, qimiz kabi), forsiy (*juvozkash, lashkarkash, shabgard* kabi) arabiy (*sarrof, siloh, abo* kabi) so‘zlar bilan ifodalangan. Genetik manbayi umumturkiy so‘zlar, boshqa forsiy va arabiy kabi o‘zlashma so‘zlarga nisbatan ko‘pchilikni tashkil etadi.

XULOSA

1. Alisher Navoiy poetik asarlaridagi realialarning mazmuniy ko‘lamini aniqlash, o‘zbek xalqi madaniyati va ijtimoiy hayotida tutgan o‘rnini belgilash, lug‘aviy-badiiy qo‘llanish maqsadlarini ochib berish, bugungi kundagi hamda eski o‘zbek adabiy tilidagi qiyosiy tahlilini amalga oshirish katta ahamiyatga ega dolzarb masalalardan biridir. Mazkur masala hal etilishi natijasida shoir she‘riy asarlarida realiyalar salmoqli mavqega ega, ular o‘zbek milliy madaniyati xususiyatlarini o‘zida to‘liq aks ettiradi, degan xulosaviy fikrga kelindi.

2. Realialar hamda madaniyat tushunchalari bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan tushunchalar ekanligi shoir she‘riy asarlaridagi realialarga doir faktik materiallar bilan yana bir bor dalillandi. Realialar madaniyatning tarkibiy qismi sifatida shoir asarlari tilida yaqqol namoyon bo‘lgan. Aytish mumkinki, realiyalar o‘zbek xalqi madaniyatini to‘liq ko‘rsatuvchi bebaho xazinadir. Hozirgi o‘zbek madaniyatidagi realialarning shoir yashagan ijtimoiy va madaniy davr realialariga munosabatini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, har bir davrning o‘ziga xos madaniyati bo‘lgani kabi, har bir davrning o‘z realialari ham mavjud bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, ularni sinxron hamda diaxron aspektda o‘rganish ko‘zlangan maqsadni amalga oshirish uchun asos bo‘ladi.

3. Navoiy asarlarida realiyalar juda ko‘p uchraydi, shoir ulardan o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan moddiy hamda ma‘naviy duniyoni ifodalash maqsadida keng foydalangan. Adib she‘riyatida realiyalar milliy madaniyatimizning asosini tashkil etib, xalqimiz madaniyati tarixida markaziy o‘rinni egallaydi. Shoir asarlarida qo‘llangan realiyalar ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va tarixiy predmetlarni bildiruvchi, o‘zbek xalqining hayoti, turmushi, tarixi, madaniyati, maishiy hayoti yoki yashash davriga xos predmet, tushuncha va voqea-hodisalarni ifodalovchi xos so‘zlardan iborat bo‘lib, shu sohalarining taraqqiyot darajasini belgilaydi. Shunga ko‘ra bunday predmetlar nomiga alohida yondashuv kerakligini ijtimoiy ong va tafakkur rivoji talab etib turibdi.

4. Muayyan so‘zning realialar tarzida paydo bo‘lishi, avvalo, o‘sha realialar yaratilgan hudud, mamlakat, millat, elat bilan bog‘liq lingvomadaniy hodisadir. O‘zbek xalqining shoir yashagan tarixiy davrdagi hayot tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti realialarning mohiyatiga, albatta, o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan. Ana shuning uchun ham realiyalar xususida fikr yuritganda, albatta, milliy o‘ziga xoslik va tarixiy kolorit masalasini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Chunki realiyalar har qanday holatlarda ham bir vaqtning o‘zida milliy, madaniy va tarixiy xususiyatga ega bo‘ladi.

5. Realiyaga eng yaqin tushuncha metafora hisoblanadi. Shunday bo'lishiga qaramay, realiya va metafora ikki xil tushuncha bo'lib, bir-biridan ma'lum xususiyatlariga ko'ra qisman farqlanadi. Metafora hosila ma'noni yuzaga keltirish usuli bo'lsa, realiya esa milliy, madaniy va tarixiy xarakterdagi leksik birliklardir. Metafora hodisasi, asosan, ot turkumi doirasida, qisman, fe'lda uchraydi.

6. Navoiy poetik asarlaridagi realiyalarni quyidagi tasnifiy guruhlariga ajratish mumkin: 1. *Maishiy realiyalar* (uy-joy jihozlari; kiyim-kechaklar; ovqat va ichimliklar; musiqaga doir realiyalar); 2. *Tabiat olami realiyalari* leksikasi (hayvonlar; o'simliklar) va boshqalar. Ular orasida oziq-ovqat hamda ichimlik nomlari (*umoch, bo'za* kabilar); kiyim-kechak nomlari (*to'n, chopon* kabilar); musiqaga oid realiyalar (*arg'anun, tanbur* kabilar) ko'p miqdorda qo'llanilgan. Xalqning moddiy tirikchilik sharoiti, kundalik hayotiga doir realiyalar shoir asarlarida alohida tizim sifatida namoyon bo'lgan.

7. Navoiy she'riy asarlaridagi realiyalarning eng ko'p qismi otlardan iborat. Ular orasida fe'llashgan otlar uchramaydi. Ammo ular orasida otlashgan sifatlar mavjud. *Zig'ircha, arshin* kabi realiyalarni shular jumlasida aytib o'tish mumkin. E'tibor berilsa, ular aslida ot realiyalardan kelib chiqqan. Bunday realiyalarning boshqa tillarda aynan ekvivalentlari mavjud emas.

8. Navoiy ijodida realiyalar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular umuminsoniy ezgu g'oyalarni yoyishga yo'naltirilgan. Adib she'riy asarlaridagi etnografik realiyalarni o'rganish orqali o'zbek xalqi tarixini chuqur anglash imkoniyatini yaratadi. Shoirning poetik asarlarida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maishiy hamda diniy-mifologik realiyalarning tadqiq etilishi o'zbek xalqining madaniyati haqida ulkan ma'lumotlar beradi. Chunki til va madaniyatni xalq yaratadi hamda rivojlantiradi.

9. Navoiy turli-tuman va o'z davri uchun yangi realiyalarni qo'llab, badiiy adabiyotda lingvokulturologik birliklar tizimini yuksak darajada rivojlantirdi. Aytish mumkinki, shoir bu bilan nafaqat o'zbek tili va adabiyotini, balki o'zbek madaniyati va jahon ijtimoiy, badiiy-estetik tafakkurini ham taraqqiy ettirdi.

10. Navoiy ijodiy merosi, undagi bitmas-tuganmas ma'no-mazmun va yuzlab timsollar bo'yicha ko'plab tadqiqotlar yaratilganligi ma'lum. Lekin bu ulug' siymo she'riyatining o'ziga xos ochilmagan qirralari hali ko'pligi ham haqiqat. Navoiy asarlarida salomlashish, harakat, turq-tarovat va imo-ishoralarga doir realiyalarni alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Alohida ta'kidlash o'rinliki, shoirning adabiy merosini lingvokulturologik aspektda o'rganish hamma zamonlarda jamiyatning eng muhim ma'rifiy-ma'naviy ehtiyojlaridan biri bo'lib qoladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЖУРАЕВА ЛАЙЛО ЖИЯНКУЛ КИЗИ

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ
РЕАЛИЙ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ НАВАИ**

10.00.01 – Узбекский язык

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Бухара – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована за номером № В2024.2.PhD/Fil4638 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.buxdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Саидов Ёкуб Сиддиқович**
доктор филологических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты: **Жабборов Хўжамурод**
доктор филологических наук (DSc), профессор

Хамроева Хулкар Хамидуллаевна
доктор филологических наук (DSc), профессор

Ведущая организация: **Ургенчский государственный университет**

Защита диссертации состоится 12 июня 2026 г. в 09⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете. (Адрес: 200118, г.Бухара, ул.Мухаммад Икбол, 11. Тел.: (+99865) 221-29-14; факс: (+99865) 221-29-14; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за № 909). (Адрес: 200118, г.Бухара, ул.Мухаммад Икбол, 11. Тел.: (+99865) 221-29-14; факс: (+99865) 221-29-14).

Автореферат диссертации разослан 25 мая 2026 г.

(реестр протокола рассылки № 16 от 25 мая 2026 г.)



Б.Э. Киличев
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

Ш.Г. Давронова
Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

М.К. Абузалова
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой лингвистике языковые средства рассматриваются как важный фактор, отражающий обычаи и традиции каждого народа, выражающий национальную идентичность и определяющий его духовность. Каждый национальный язык имеет свои неповторимые лексические единицы с уникальным значением и содержанием, и важно изучать их в связи с культурой народа, духовными ценностями, своеобразным образом мышления и национально-историческими традициями, что определяет актуальность темы исследования.

В мировой лингвистике особое внимание уделяется изучению реалий как важнейшей единицы лингвокультурологии в различных областях науки, в частности, в области лингвистики, определению их места в народной культуре, изучению их фонетической формы, лексико-семантических и лингвопоэтических особенностей, этимологических аспектов по современной методологии и методам. Ведутся серьезные исследования по определению изменений, произошедших в их постепенном развитии, их роли в формировании и развитии национальной культуры, их отношения к другим смежным понятиям, в частности, к метафоре, ксенизму и колориту. Социальная эпоха требует изучения реалий не только в узбекском, но и во всем мировом языкознании, их классификации на основе таких тематических групп, как материальное и духовное богатство народа, изучения лингвопоэтических и лингвокультурных особенностей по современным направлениям, методологии и методам языкознания.

В годы национальной независимости в узбекском языкознании возрастает интерес к изучению языка в связи с обычаями, историческими традициями и духовным миром народа. Поскольку «сохранение, изучение и передача исторического наследия будущим поколениям является одним из важнейших приоритетов политики нашего государства»¹. Обычаи являются важным аспектом, определяющим этнографическую самобытность определенного этноса, и их выражение посредством языковых средств имеет большое значение как для лингвистики, так и для этнографии. Каждый регион имеет свою этнографическую лексику, и их сбор, лингвистическое исследование и передача из поколения в поколение в качестве языкового инструмента позволяет решить многие лингвистические проблемы.

В Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-4947 «О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Наваи» от 19 октября 2020 года предусмотрено обратить особое внимание на научно-исследовательские работы по изучению творческого наследия поэта². Соответственно, вопросы, связанные с исследованием реалий в языке художественных произведений Алишера Наваи, который внес неоценимый вклад в развитие узбекского национального мышления, культуры,

¹ Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.1 jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B.26.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-oktabrdagi "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarori.

классической литературы и литературного языка, раскрытием их лингвистической природы, определением уровня их применения, определением их места в языке и культуре, изучением их художественно-эстетических и функционально-содержательных особенностей, лингвопоэтическим и лингвокультурологическим анализом, до сих пор не являлись объектом специального монографического исследования, что определяет актуальность и востребованность выбранной темы.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-4947 «О Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах» от 7 февраля 2017 года, № УП-4958 «О дальнейшем совершенствовании послевузовского образования» от 16 февраля 2017 года, № УП-5850 «О мерах по коренному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка» от 21 октября 2019 года и № УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране» от 20 октября 2020 года; а также в Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан № 984 «Об утверждении Положения о Департаменте развития государственного языка» от 12 декабря 2019 года, №ПП-4479 «О широком праздновании тридцатилетия принятия Закона Республики Узбекистан «О государственном языке» от 4 октября 2019 года, № 40 «О мерах по организации деятельности Терминологической комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан» от 29 января 2020 года, и в других нормативно-правовых документах имеющих отношение к данной сфере деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. “Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства”.

Степень изученности проблемы. С тех пор, как лингвистика начала формироваться как наука, в результате многостороннего изучения языка возникли различные направления и течения. Одним из таких направлений является лингвокультурология. В настоящее время лингвокультурология считается стремительно развивающимся направлением у всех народов. Реалии, являющиеся лингвокультурологической единицей, первоначально изучались по-разному в мировой лингвистике, а также в узбекской лингвистике. В исследованиях изучены тематические группы реалий, отношение реалий к периоду, отношение реалий к сопутствующим событиям. В частности, реалии в русском языкознании изучены Б.И.Репиным, М.Л.Вайсбурдом, С.Влаховым, С.Флориным, Г.Д.Томахиным, Л.В.Мосиенко, Э.А.Левиной, Х.М.Карамзиной, Н.А.Фененко, В.А.Ражиной, Х.М.Карамзиным, В.А.Вернигоровой, М.В.Зыряновой, Т.Б.Пентковской, С.В.Николаенко, А.Д.Слеповой³; в

³Репин Б.И. Национально-специфические слова-реалии как особая часть лексики в переводимом произведении // 28

английском языкознании - В.Л.Whorf, L.Venuti, R.Leppihalme⁴; в узбекском языкознании - Р.Дониёровым, Р.Файзуллаевой, Г.Саломовым, Х.Хамроевым, Р.Х.Шириновой, З.Садыковым⁵, в казахском языкознании А.Аккузовой, М.Ю.Глущенко, А.Д.Кутибаевой⁶.

Связь исследования с планами научно-исследовательской работы высшего учебного заведения, в котором выполнена диссертация. Данная диссертация выполнена в рамках научно-исследовательской работы кафедры узбекского языкознания и журналистики Бухарского государственного университета на тему «Проблемы исследования отношений языка, личности и общества».

Целью исследования является раскрытие реалий, отражающих узбекскую национальную культуру, на примере образцов художественной литературы, в частности, поэтических произведений Алишера Навои, обоснование языковой и социальной взаимосвязи языка и культуры.

Задачи исследования:

оценка состояния изучения реалий в мировом и узбекском языкознании, предоставление решений и рекомендаций по устранению проблем в этой области;

